

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 832 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr	10
Baxtiyor Islamov	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati	12
Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System.....	18
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar	26
Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	
Yashil budjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari	32
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari	37
Yormatov Ilmidin Toshmatovich	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir	41
Agzamov Shaxboz Akmalovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish.....	46
A. X. Salamov	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida	50
Dosmuratova Shaxista Kengashovna	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi	57
Axmediyeva Aliya Toxtarovna	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari	65
Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	69
Shamsiyev Nodir Muratovich	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	74
Shagazatov Oybek bahodirovich	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari	78
Davlatov Sanjar Abdimannonovich	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari.....	82
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari	86
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mehanzimmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida).....	91
Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	96
Nazarova Umida Avazovna	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari.....	100
Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish.....	105
Mirzayev Musurmon Umidullayevich	
Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati.....	110
Fayziyeva Aziza Azamat qizi	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili.....	115
Eshonqulov Davlatjon Rajabboevich	



Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish.....	121
Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari.....	125
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан	131
Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна	
Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	137
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	143
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	150
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	156
Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	161
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	169
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	172
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности.....	177
Зайнутдинова Умидга Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	181
Qurbanov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	186
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	190
Izbosarov Boburjon Bahiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	195
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	199
Mardiiev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	205
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	209
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	215
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	223
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliysi instrumentlarini jalg etishdagi joriy tendensiyalar	228
Eshimov Alisher Dusmurodovich	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi)	236
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	242
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	247
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	



Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	252
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaneg vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	258
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamонавиy soliq ma'murchilagini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish	262
Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	268
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruvin hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari	276
Sobirov Otabeck Olimjonovich	
Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	279
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	283
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	286
To'ychiyev Otabeck Shamshihevich	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	290
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamонавиy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	295
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	299
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	304
Abdullahayev Boburjon Akbaralievich	
Barcha tadbirdorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	308
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	312
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	316
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation.....	321
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	327
Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	331
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемириўлйўловчи"	334
Н. Э. Кахарова	
Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	339
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	344
Musyeva Shoiria Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	350
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	355
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	



Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati	359
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	364
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	371
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi	
Процессы цифровизации АО "Hududgazta'minot"	375
Хусанов Каҳрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	380
Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi	383
Bobayev Isroiljon Abdinabiyelevich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	388
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	
O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	396
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida.....	399
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chiqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	402
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari	411
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida)	415
Karimov Bekzodjon Ilhomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	422
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	428
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	434
Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	439
Jo'ravayev O'ktam Panji o'g'li	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	445
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash	450
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari.....	455
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari.....	462
Ollokulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	465
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি	471
Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova	



Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	475
M. Yuldasheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	482
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	489
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi	494
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	501
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	505
Karamatova Noiba Husniddinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari	512
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	519
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммединович	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	524
Sultanov Baxram Begdullayevich	
Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	528
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri	536
Mirzayeva Muhlisra Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	541
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	545
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroixizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	550
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limi moliyalashtirish yo'llari	557
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	562
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	566
Bayanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	572
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	579
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	582
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	586
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	593
Nabihev Feruz Nurmurodovich	



Fundamentals of Innovative Management and its Organizational Control	599
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamatovich	
Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanishning afzalliklari.....	604
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Ocenka ekonomicheskoy effektivnosti ispolzovaniya fotoelektricheskoy teplovoy ustanovki	608
Жураев Ислом Рахматович, Юлдошев Исройл Абриевич, Жураева Зухра Исламовна	
Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro tajriba.....	614
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich	
Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi	621
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Oliy ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi sabablari.....	625
Abdukadirova Kamola Azimovna	
Mintaqada turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari.....	629
Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li	
Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha infrastruktura holati.....	636
Dehqonov Burxon Rustamovich	
Soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.....	642
Kamilov Abror Anvarovich	
O'zbekistonda uylarning energiya samaradorligini oshirish.....	647
Dodiiev Fozil O'tkurovich	
O'zbekistonda talant menejmentni tatbiq etish istiqbollari.....	653
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari.....	658
Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li	
Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda resurs xarajatlarini optimallashtirish: tahlil va boshqarish.....	663
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich	
Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida sug'urta institutlarining tutgan o'rni.....	673
K. A. Sharipov, D. Jo'rayev	
Tadbirkorlik nazariyasining evolyutsion talqini.....	678
Aripov Oybek Abdullayevich	
Enhance Export Potential of Private Entrepreneurship and Small Venture.....	683
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
Mintaqa barqaror rivojlanishini cheklovchi ekologik omillar tahlili.....	690
Adilova Marg'uba Tursunaliyevna	
Improving the Efficiency of Industrial Enterprise Activities in the Age of Digital Technologies	698
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
A study of green marketing practices in the retail industry – Advantages and disadvantages.....	705
Davronova Zilola Gulomovna	
Tijorat banklarining korporativ xizmatlarini transformatsiyalash jarayonini rivojlantirish.....	709
Farmanova O'g'iloy Alikul qizi	
Davlat moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollari	715
Maxmudov Azamat Normuradovich	
Xorijiy banklarning moliya injiniringi mahsulotlari va rivojlanish istiqbollari	721
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda turizm xizmatlari imkoniyatlari: muammo va yechimlar	727
Fayziev Oybek Raximovich, Xalikov Saydilla Abdrazmanovich	
Sanoat klasterlarini shakllanishining simulyatsiya modelini yaratish	734
Xakimov Ziyodulla Axmadovich, Axmedova Rayxona Jasurbek qizi	
Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari	741
Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotda zamонавиј техника ва texnologiyalarning xususiyatlari.....	747
Xusanov Ulugbek Nishanovich	



Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti joriy hisobini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar	752
Yusupova Mahfuza Baxtiyor qizi	
Mulkchilikning iqtisodiyotdagi ahamiyatini qiyosiy tahlil qilish (O'zbekiston va Shvetsiya misolida)	757
Odil Norboyev	
Ipoteka krediti riskining ayrim nazariy jihatlari	761
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
Xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda O'zbekistonning ishtiroki	764
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, Bobobekova Nargiza Baxtiyorovna	
Tijorat banklari fond bozoridagi aksiyalar narxini o'zgarishini ebo moduli orqali aniqlashning ekonometrik tahlili	769
Yuldasheva Manzura Ollashkurovna	
Organizational mechanism of sustainable development of the tourism industry, role and application of technologies.....	780
Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich	
Banklarda risklarni diversifikatsiyalashning mohiyati va ahamiyati	787
Baxriddinov Sharofiddin	
Davlat oliv ta'lif muassasalarida daromad va harajatlarning o'zaro mutanosibligi	793
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri: tahlil va istiqbollar	799
Raxmanov Bekzod Ibragimovich	
Инновационный и развивающий менеджмент в сфере услуг	803
Ахтамова Моҳигул Эркиновна	
Ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish asosida raqobatbardoshligini oshirish	807
Bakiyeva Iroda Akbarovna	
Dehqon xo'jaliklarida yetishtirilgan grek yong'og'ini iste'molchilarga yetkazib berish yo'llari	811
Inobatov Abror Boshlarovich	
Komplaiens и риск менеджмент в международных гуманитарных организациях	817
Мухамеджанов Баходир Каҳрамонович	
Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	822
Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna	
Soliqlarning yig'iluvchanligi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	826
Abdurashulov Alisher Abdurasulovich	



SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

ORCID <https://orcid.org. 0009-0001-1202-2448>

Abdurasulov Alisher Abdurasulovich

TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Har qaysi soliq tizimida soliq siyosatining samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlar mavjud bo'ladi. Shulardan biri, bu soliqlarning yig'iluvchanligi masalasidir. Soliqlarning yig'iluvchanligi ta'minlash bir tomondan soliq ma'murchiliga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan soliq to'lovchilarning madaniyatiga bog'liq bo'ladi. Biroq bu borada ma'lum darajada ijobji natijalarga erishilgan bo'lsa-da, biroq, ayrim muammolar ham yo'q emas. Mazkur maqolada ana shu masalalar keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: soliq, soliqqa tortish, yig'iluvchanlik, soliq yig'iluvchanligi, omil, soliq imtiyozlari, preferensiya, soliq qarzi, ortiqcha to'lov, soliq siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, soliq tushumlari.

Abstract: In any tax system, there are indicators that determine the effectiveness of tax policy. One of them is the issue of tax collection. Ensuring tax collection depends on tax administration, on the one hand, and on the culture of taxpayers, on the other hand. However, although some positive results have been achieved in this regard, some problems still exist. This article discusses these issues in detail.

Key words: tax, taxation, collection, tax collection, factor, tax credit, preference, tax debt, overpayment, tax policy, macroeconomic stability, tax revenues.

Аннотация: В любой налоговой системе существуют показатели, определяющие эффективность налоговой политики. Одним из них является вопрос сбора налогов. Обеспечение собираемости налогов зависит от налогового администрирования, с одной стороны, и от культуры налогоплательщиков, с другой стороны. Однако, хотя в этом отношении достигнуты некоторые положительные результаты, все еще существуют некоторые проблемы. В этой статье подробно рассматриваются эти вопросы.

Ключевые слова: налог, налогообложение, сбор, сбор налогов, фактор, налоговый кредит, преференция, налоговая задолженность, переплата, налоговая политика, макроэкономическая стабильность, налоговые поступления.

KIRISH (INTRODUCTION)

Ma'lumki, Yangi O'zbekiston sharoitida 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida hamda O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashdirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma'muriyatichiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish masalasi ustuvor masala qilib belgilanishi bejiz emas. Chunki soliqlarning yig'iluvchanligi masalasi (muammosi) bir tomondan soliq ma'murchiliga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan soliq to'lovchilarning madaniyatiga bog'liq bo'ladi.

O'z navbatida, soliqlarning yig'iluvchanligi muhim soliq ko'rsatkichi hisoblanib, uning darajasi davlat budjetidan ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishga ham katta ijobjiy (yoki salbiy) ta'sir qiladi. Bu ko'rsatkichni aniqlash va uning uslubiy jihatlari soliq tizimidagi muhim elementlardan biri hisoblanadi. Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasiga juda ko'plab omillar ta'sir qiladi, bu omillarning har birining ta'sirini tadqiq qilish kichik ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

Soliqlarning yig'iluvchanlik masalalariga bag'ishlangan xorijiy va mahalliy olimlarimiz tomonidan ma'lum darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo, bu kabi tadqiqotlar turli davrlarni qamrab olgan bo'lib, soliq islohotlarining ko'lami va uning mazmuni va yo'naliishiga qarab soliq yig'iluvchanligiga ham ta'sir qilib boradi. Shu jihatdan olganda mazkur maqola doirasida tanlangan mavzu doirasidagi masalalarning eng muhim jihatlariga e'tibor qaratiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Soliqlarning yig'iluvchanlik muammosi soliq nazariyasining klassik iqtisodchi olimlaridan tortib, bugungi zamonaiv iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida asosiy obyekt sifatida tanlab olingan. Jumladan, klassik soliq nazariyachilari A.Smit, D. Rikardo, U.Petti, Dj.S.Mill, F.Kene va shu kabilarning ilmiy tadqiqotlarida davlat o'z ehtiyojlari uchun jalg qiladigan mablag'larning manbalari nimalar bo'lishi bilan bir qatorda, soliqlarni yig'ishning usullari haqida ilmiy takliflar ishlab chiqqan. Keyinchalik, bu muammo zamonaiv M.Keyns Dj., P.Samuelson, B.A.Rayzberg, D.G.Chernik., A.Perov, A.Tolkushkin, A.Pezenti, Yu.Yu.Petrunik, M.I.Panov kabilar olimlarning ilmiy tadqiqotlariga ahm mavzu sifatida tanlab, ayrim ilmiy xulosalar shaklantirildi.

Soliqlarning yig'iluvchanlik masalasi mahalliy olimlarimizdan aksariyati tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. esa soliq siyosatining mazmuni va uning strategik muammolari bilan bog'liq ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Jumladan, T.Malikov, N.Haydarov, A.Jo'ravayev, M.Alimardanov, N.Quziyeva, T.Toshmatov, I.Niyazmetov, S.Xudoyqulov, N.Ashurova, U.Normurzayev, A.Islomqulov, A.Toshqulov, J.Zaynalov, J.O'rmonov kabilarning ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Jumladan, MDH mamlakatlari olimlari: S.V. Barulin, A.V. Makrushin, V.A. Timoshenkolarning ilmiy tadqiqotlarida mamlakatning soliq siyosatida soliq va soliqsiz tushumlarning budgetga kelib tushishining konseptual masalalari yoritilgan bo'lsa, mahalliy olimlarimizdan, I.Niyazmetov soliq tizimida soliqlarning yig'iluvchanligi va soliq yuki o'rtasidagi bog'liq masalalarni tadqiq qilgan bo'lsa, A.Islomqulov davlat budgeti daromadlariga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilgan va uning soliq yig'iluvchanligi holatini tadqiq qilgan. U.Nomurzayev esa, soliq to'lovchilarga berilgan imtiyozlarning soliq yig'iluvchanligini oshirishga (kamayishga) ta'sirini uslubiy jihatdan bog'lagan.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, soliqlarning yig'iluvchanlik masalasini nafaqat yillar kesimida, balkim chorak va oyolar, hattoki, kunlar kesimida tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy zaruratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Soliqlarning yig'iluvchanligiga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan ham foydalaniadi. Soliqlarning yig'iluvchanligining mohiyatini ochib berishda deduksion yoki induksion usullardan foydalaniyan bo'lsa, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda guruhlash, sintez va tahlil usullardan samarali foydalaniidi. Bundan tashqari, statistik tahlillarga asoslanib, iqtisodiy-soliq ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishlari tahlil qilindi. doirasida ko'p qo'llanilib kelinadigan tadqiqot usullaridan keng foydalaniadi. Shuningdek, mantiqiy va taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash usullari ham o'z samarasini beradi deb hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

O'zbekistonda hozirgi jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida budget-soliq siyosatining ustuvor yo'nashishlaridan biri soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va shu orqali budget daromadlarining bir maromda shakllantirishga erishishdan iborat. Soliqlarning yig'iluvchanligi bu o'z navbatida soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi darajasini ham ifodalaydi. Iqtisodchi olim F.Mirzayevning fikriga ko'ra, soliq yig'iluvchanligi darajasi soliq tizimining fiskal funksiyasini tafsiflovchi sifat ko'rsatkichi hisoblanib, u qancha yuqori bo'lsa, soliqlarning fiskal funksiyasi shunchalik darajada yaxshi bajarilayotganligini ko'rsatadi. Soliq yig'iluvchanligi darajasini oshirish soliq salohiyati bilan chambarchas bog'liqidir. Shu nuqtayi nazardan, umum davlat miyosida soliq yig'iluvchanligini baholashda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini, xususan, soliq salohiyatini hisobga olish maqsadga muvofiqdir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldag'i "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomil lashtirish, soliqlar va boshqa to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berildi. Jumladan, "soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaiv uslublarini joriy etish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to'liq qamrab olishni ta'minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish, respublika va mahalliy budgetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar,

¹ F.Mirzayev. Soliq yig'iluvchanligini hisoblashning uslubiyoti va amaliyoti. www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/15687.



shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish² kabi vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatda keng ko'lamli islohotlar boshlanishi va yangi O'zbekiston qurilishi bilan soliq sohasi ham tubdan o'zgardi. O'sha paytda amaldagi Soliq kodeksi yangi talablarga javob bermasligi hammaga ayon bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-sonli "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining yangi tahriri respublika hududida amalda bo'lgan soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi barcha amaldagi norma va qoidalarni takomillashtirish va tizimlashtirish orqali to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjat sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, soliq munosabatlari tizimida yagona qonunchilik bazasini yaratishga imkon berdi. Ushbu chora soliq qonunchiligi sohasidagi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, davlat budjeti va uning daromadlarini shakllantirishning barqarorligini ta'minlashga, soliq qonunchiligini soddallashtirishga, soliq munosabatlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va to'qnashuvlarni bartaraf etishga, vijdonli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan. Soliq kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish jarayonida soliqlar sonini ularni birlashtirish, shuningdek o'xshash soliq bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddallashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish orqali yanada optimallashtirish amalga oshirildi.

Umuman olganda, Soliq kodeksining yangi tahriri loyihasi soliqlarni undirishning amaliyotda sinalga tamoyillar va yondoshuvlar, boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribalariga asoslanadi. Xususan, uning ustida ishlashda MDH mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi tajribasidan foydalanilgan.

Soliq kodeksining yangi tahrirda qabul qilinishi O'zbekiston soliq tizimini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirishga, qonunga bo'yusunuvchi soliq to'lovchilar huquqlarini yuqori darajada himoya qilishni ta'minlab, uni milliy va xorijiy investorlar uchun osonroq va tushunarli qilishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to'lash jamg'armasiga soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag'lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarни bekor qilish va yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko'rib chiqildi. Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "Soliq ma'muriyatichiligidan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni qabul qilindi va uning asosida O'zbekiston soliq tizimida soliq ma'muriyatichiligi yanada soddallashtirilgan holda takomillashtirildi, Soliq ma'muriyatichiligidan takomillashtirish strategiyasi va Soliq ma'muriyatichiligidan takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

1-jadval: Davlat budjetiga soliqli tushumlarning guruhlari bo'yicha ahamiyati tahlili (mlrd so'm)³

No	Kўrsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023 -y.*
	YAIM (Yalpi ichki mahsulot)	424 729	529 391	602 551	734 588	888 342	1 066 690
	Davlat budjeti daromadlari	79 099	112 165	132 938	164 799	202 043	233 600
Jumladan:							
1.	Bevosita soliqlar	15 437	31 677	45 207	58 930	64 447	73 300
2.	Bilvosita soliqlar	40 949	46 427	46 428	56 290	71 390	85 900
3.	Resurs soliqlari	12 663	19 681	21 257	23 036	23 913	28 300
4.	Boshqa daromadlar	10 050	14 380	20 046	26 542	42 293	46 100

* Ushbu yildagi ko'rsatkichlar dastlabki ma'lumotlarga asoslangan, haqiqiy tushumlarda biroz ko'payish jihatdan farq qilishi mumkin.

2023-yilda Davlat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 100,4 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 233,6 trln so'm bo'ldi. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 31,7 mlrd so'mga yoki 15,7 foizga ko'p deganidir. Jumladan, Soliq qo'mitasi tomonidan undiriladigan soliqlar orqali 167,1 trln so'm daromadlar shakllantiriladi hamda Bojaxona qo'mitasi bo'yicha 56,7 trln so'm mablag'lari budjetga undirildi.

Agar, soliq tushumlarining yig'iluvchanlik holatini soliq guruhlari bo'yicha tahsil qilinadigan bo'lsak, bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 736 mlrd so'mga kam yoki 99,0

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyulda "Soliq ma'muriyatichiligidan takomillashtirish, soliqlar va boshqa to'lovchilarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

3 Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 73,3 trln so'm bo'lgan, bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 8,9 trln so'mga yoki 13,8 foizga ko'p va 2023 yilda bevosita soliqlar Davlat budjeti daromadlarining 31,4 foizini tashkil qilgan.

Tahsilni bevosita soliq turlari bo'yicha davom ettiradigan bo'lsak, foyda solig'i bo'yicha tushumlar belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 1,9 trln so'm kam yoki 95,5 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 40,9 trln so'm bo'lgan holda, o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 3,3 trln so'mga yoki 8,7 foizga ko'p. Tushumlarning pasayishi, asosan, tovarlarni (xizmatlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydaga "0" foiz miqdoridagi soliq stavkasi belgilanishi bilan izohlanadi. Jismoni shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 1,3 trln so'm ko'p yoki 104,7 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 29,6 trln so'm bo'lgan holda o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 5,3 trln so'mga yoki 21,9 foizga ko'pdir. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlar belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 44,9 mlrd so'm kam yoki 98,4 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 2,8 trln so'm bo'lgan. O'z navbatida o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 267 mlrd so'mga organligini ko'rish mumkin.

Bilvosita soliqlar kesimidagi tahliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2023-yilda bu bo'yicha tushumlar belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 3,3 trln so'm kam yoki 96,3 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 85,9 trln so'm bo'lgan. O'z navbatida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 4,7 trln so'm kam yoki 92,8 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 60,0 trln so'm bo'lgan, bunda, energoresurs qazib chiqarish, qayta ishslash hajmi pasayishi hamda tariflarini ko'rib chiqishning kechiktirilishi, dunyo bozorida paxta tolasi, don va kamyoviy o'g'itlar narxi pasayishi hamda noqulay ob-havo sharoitida korxonalar xarajatining oshishi soliq tushumlari yo'qotilishiga olib kelgan. Aksiz solig'i bo'yicha tushumlar esa, belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 1,5 trln so'm kam yoki 91,7 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 16,4 trln so'm bo'lib, mazkur soliq bo'yicha tushumlarning prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan kam bo'lishi yil boshida havo haroratining keskin sovib ketishi natijasida avtomobilarga siqilgan gaz quyish shoxobchalarining faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi va AI-80 rusumli avtobenzin mahsuloti uchun aksiz solig'i "nol" stavkada qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Agar, soliq tushumlarining yig'iluvchanligini respublikamizda yirik soliq to'lovchilar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, uni quyidagi 2-jadval ma'lumotlari asosida ko'rshimiz mumkin.

2-jadval: 2023 yilda tarmoqlar kesimida soliq tushumlarining yig'iluvchanlik holati tahlili (mlrd. so'm)⁴

Nº	Tarmoq (korxona)lar	Yil boshiga belgilangan prognoz ko'rsatkichlari	Yil oxiriga* haqiqiy tushumlar	Soliqlarning belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan yig'iluvchanligi (%)da	Farqi (+; -)
Respublika bo'yicha jami:	163 811,0	165 917,5		101,3	2 106,5
Shu jumladan:					
1 Yirik soliq to'lovchilar	98 928,5	97 668,3		98,7	-1 260,2
Shu jumladan:					
1 "Navoiy KMK" AJ	18 556,6	24 320,0		131,1	5 763,4
2 "Olmaliq KMK" AJ	9 096,3	8 650,3		95,1	-446,1
3 O'zbekneftegaz tarmog'i (31 ta korxona)	8 094,8	7 212,9		89,1	-881,9
4 Transgaz AJ	5 244,5	3 279,4		62,5	-1 965,0
5 Uyali aloqa kompaniyalari (5 ta korxona)	2 809,5	2 333,3		83,0	-476,3
6 Tamaki mahsuloti ishlab chiqaruvchilar (2 ta korxona)	2 964,0	2 898,2		97,8	-65,8
7 O'zavtosanoat AJ (21 ta korxona)	2 924,2	4 220,4		144,3	1 296,2
8 Energetika tarmog'i (81 ta korxona)	4 078,5	3 923,0		96,2	-155,5
9 Banklar (33 ta)	6 170,8	6 375,1		103,3	204,3
10 Alkogol mahsuloti ishlab chiqaruvchilar (61 ta korxona)	2 175,1	2 342,4		107,7	167,3
11 Hududgazta'minot AJ (15 ta korxona)	3 442,4	3 233,0		93,9	-209,4
12 Lukoil QK kompaniyasi	4 187,9	2 906,3		69,4	-1 281,6
13 O'zkimyosanoat AJ (17 ta korxona)	1 681,4	1 536,0		91,4	-145,4

* Ushbu yildagi ko'rsatkichlar dastlabki ma'lumotlarga asoslangan, haqiqiy tushumlarda biroz ko'payish jihatdan farq qilishi mumkin.

⁴ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.



Keltirilgan 2-jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha 2023-yilda prognoz ko'rsatkichlari 98 928,5 mlrd so'm bo'lgan holda amaldagi soliqlarning yig'iluvchanligi 97 668,3 mlrd so'm bo'lgan holda 98,7 foizga bajarilgan holda – 1 260,2 mlrd so'mga kamaygan. Bu kamayishga O'zavtosanoat AJ, banklar, alkogol mahsuloti ishlab chiqaruvchilar hamda "Navoiy KMK" AJdan tashqari barcha tarmoq va korxonalarda soliq tushumlarining kamayishi sabab bo'lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION / RECOMMENDATIONS)

Fikrimizcha, ushu tarmoqlarda soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish uchun shu bilan birga, tarmoqda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun birinchidan, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishni, ikkinchidan, biologik eskirgan navlar o'rniiga iqlim o'zgarishiga mos hosildorligi yuqori yangi navlarni kengaytirish, uchinchidan, irrigatsiya tizimida suv hisob-kitob tizimini raqamlashtirishni yo'nga qo'yish hamda suv yo'qotishlarining oldini olish uchun kanallarni betonlashtirish ishlariiga alohida e'tibor qaratiladiki, buning natijasida soliq bazasi yanada oshib soliq tushumlarining yig'iluvchanligiga ijobjiy ta'sir qiladi.

Bundan tashqari O'zbekiston soliq tizimida soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish uchun quyidagi yo'naliшlardagi soliq islohotlarni kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan elektron hisob-fakturalarni (EHF) to'g'ri rasmiylashtirish, qayta ish-lash va hisobotlarga tuzatishlar kiritish jarayonini yanada takomillashtirish, ikkinchidan, soliq xizmati organlari tomonidan qo'shimcha soliq obyektlari va yer maydonlarni aniqlash mexanizmining samaradorligini oshirish, uchinchidan, soliq to'lovchi korxonalarining yil boshidagi soliq qarzlarni undirishning samarali usullaridan kengroq foydalanish, to'rtinchidan, soliq to'lovchilar faoliyatini bo'yicha soliq tekshiruvi natijasini shaffof hamda insoqli soliq to'lovchilarni qullah orqali soliq tushumlarini ko'paytirish, beshinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan shirilgan ish o'rinnari va mehnatga haq to'lash fondini legallashtirishni ta'minlash, oltinchidan, soliq to'vochilarda Onlayn nazorat kassa mashinalarining doimiy ishlash mexanizmlarini kuchaytirish va shu kabilarni amalgalashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2013-yil 26-dekabrdagi O'RQ360son Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi "Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'naliшlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-812-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz>docs/5841063
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz>docs/3802378
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagli PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz>docs/3271159
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagli PQ-4389-sonli "Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. lex.uz>ru/docs/4415356
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagli PQ-3756-sonli "Imtiyozlar va preferensiyalar berish tarribini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. lex.uz>docs/3765550
9. O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonuni loyihasi va 2022-yil uchun Budjetnomha bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining xulosasi. lex.uz>docs/5801127
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagli "Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.journal.tsue.uz>index.php/archive/article/view/...
11. Vahobov A., A.Jo'rayev. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – T.: "Sharq" nashriyoti – 2009.
12. Jo'rayev, A. Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari: Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 243 b.
13. Normurzayev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyat. Diss. avtoreferati. – T., 2022. – 20. B
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining axborotnomasi.
15. <http://www.Soloq.uz> – (Davlat soliq qo'mitasi sayti)
16. <http://www.mf.uz> – (Moliya vazirligi sayti)
17. <http://www.stat.uz> – (Davlat statistika qo'mitasi sayti)
18. <http://www.lex.uz> – (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.